



## Zardushtiylikning diniy marosimlari va qadimgi e'tiqod tizimlari bilan bog'liqligi

**Elomonov Shuhrat**

**Bobosherov Behruzbek**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabalari

[bobosherovbehruz48@gmail.com](mailto:bobosherovbehruz48@gmail.com)

**Abstract:** This article discusses the history of the formation of the Zoroastrian religion, which is a religion of goodness and light, which originated in ancient Central Asia thousands of years ago, and the areas of its spread.

**Key words:** Ahura Mazda, Zoroaster, Mithra, Avesta, sacred fire, Yasna, Visparad, Zeus.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada olis mingyillarga tutash qadim Markaziy Osiyo vatani bo'lgan, ezgulik va yorug'lik asosi bo'lgan zardushtiylik dinining shakllanish tarixi hamda uning tarqalish hududlari to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** Ahura Mazda, Zardusht, Mitra, Avesto, muqaddas olov, Yasna, Visparad, Zevs.



**Аннотация:** В данной статье говорится об истории зороастризма, родины древней Средней Азии, являющейся основой добра и света, и регионах его распространения.

**Ключевые слова:** Ахура Мазда, Заратустра, Митра, Авеста, священный огонь, Ясна, Виспарад, Зевс.

**Kirish.** Zardushtiylik so'zi dinning o'ziga nisbatan zamonaviyroq so'z desa ham bo'ladi, chunki u birinchi marta 1874-yilda Archibald Sayce tomonidan yozilgan "Qiyosiy filologiya tamoyillari" nomlangan kitobda paydo bo'lgan. Ba'zi matnlarga ko'ra, zardushtiylik qadimgi forsiy qabilalar tomonidan tutilgan din bilan zid bo'lgan, shuning uchun Zardusht tomonidan bu diniy moyillikni qoralangan va sajda qilinadigan yagona xudo Ahura Mazda ekanligini e'lon qilingan. Xuddi shunday, ba'zi manbalarda Zardusht insoniyatni dunyodagi birinchi monoteistik e'tiqod bilan tanishtirdi. Bugungi kunda dindorlari ko'p bo'lmaganiga qaramay, zardushtiylik dini ko'plab g'arbiy ijodlarga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu falsafa ba'zi mashhur musiqiy asarlarda, masalan, Richard Strauss tomonidan "Shunday qilib Zaratustra gapirdi" kompozitsiyasida, taniqli bastakor Motsart ham asar "Sehrli nay" librettosida zardushtiylik diniga musiqiy epizod bag'ishlagan. Zardushtiylik dini eramizdan avvalgi 1 mingyillikning birinchi yarmida g'arbiy Turkistonda. O'rnatilgan ba'zi Eron qabilalarining e'tiqodlarini diniy isloh qilish sifatida tarqala boshlandi. Zardushtiylikning tug'ilishini tushunish uchun hind dini va ushbu yangi ma'naviy falsafa o'rtasida taqqoslash yaxshiroq bo'lishi mumkin. Ikkala diniy qarashlarda ham Mitra



isantimetrli umumiy xudo bor edi (Mitre hindlarning fikriga ko'ra va Mitra eroniylarning fikriga ko'ra), bu «Quyosh xudosi» degan ma'noni anglatadi.<sup>1</sup>

**Adabiyotlar tahlili.** Abu Rayhon Beruniy o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan tortib Suriya yerlarigacha tarqalganligini aytadi Kulakov A.Ye. “Religi mira”, “Yaxudiy oy-quyosh kalendari” haqida zardushtiylik haqida ma'lumotlar keltirilgan 1723-yili ingliz olimi Jorj Bouja “Avesto”ning bir nusxasini Oksford kolledjining kutubxonasiga olib borib topshiradi. Bir necha yil orasida yurib, ulaming qadimgi tili va odamlarini o'rgangan fransuz olimi aAnketl Dyupperon 1711-yili “aveto”ning bir qismini so'z boshi, asl matni va tarjimasi bilan nashr etiladi. bu ishlar oqibatda g'arbiy evropada “avesto”ga qiziqish va uni o'rganish avj olib ketadi. hozirgi davrda “avesto”ning qo'lyozmasi Hindistondagi Bombay shahrida Koma sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda. Bu ilmgoh zardushtiylikning madaniy markazi bo'lib, shu jamoa mablag'iga ishlaydi. “Avesto” 1615-yilda yozuvida ko'chirilgan bo'lib, 672 betdan iborat.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda Abu Rayhon Beruniy o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini o'rganishda tizimlashtirish va xolislik tamoyillaridan foydalanilib, manbalarni tarixiy-qiyosiy va davrlashtirish, tarixiylik metodlari orqali tahlil qilindi.

**Dolzarbliqi.** Markaziy Osiyo aholisining ilk o'rta asrlar diniy dunyo qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, albatta, asosiy din sifatida aholi orasida keng e'tiqod qilingan. Zardushtiylikning o'zi esa Markaziy Osiyodan tashqari Eron, Afg'oniston va Hindiston aholisi orasida ham keng tarqalgan edi. Zardushtiylik mazdeizm ta'sirida bo'lgan va

<sup>1</sup> “Avesto kitobi” “tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai”.



payg'ambar rutbasini olgan Zardusht ta'limotiga amal qilgan falsafiy ta'limot va din sifatida asosiy sahnaga chiqadi. Zardusht ilohiy Ahura Mazdaga e'tiqod qilishni da'vat qilib, payg'ambar tomonidan yaratilmagan yagona yaratuvchi deb hisoblangan mavjudot ekanligini e'lon qiladi.

**1-guruh Olimlar tomonidan o'rganilgan manbalar.** Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilishsa, yana boshqalar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u eramizdan avvalgi, taxminan, 570-yillarda tug'ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht O'rta Osiyodagi ko'pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib yangi oqimga asos soldi. Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to'g'risida ikki fikr mavjud: birinchisi "G'arb teoriyasi" bo'lib, unga ko'ra Media (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi.<sup>2</sup> Bu fikr tarafdorlarining dalili – birinchidan zardushtiylikning Qadimiy Eron hududlarida keng tarqalgani bo'lsa, ikkinchidan zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoning bizgacha yetib kelgan nusxasi qadimiy eron-pahlaviy tilida yozilganligidir. Yana bir boshqa fikr "Sharq teoriya" si bo'lib, bunga ko'ra Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi va ko'pchilik manbashunoslar shu teoriya tarafdoridirlar. Xorazm birinchi bo'lib Zardushtiylik muqaddas olovi „Atar – xurra“ yoqilgan va Axuramazda Zardusht bilan bog'langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan Avestoda: "birinchi bor muqaddas olov „Atarxurra“ „Eran-vej“ (ba'zi manbalarda „Ayrian vedja“) da yoqildi" deyiladi.

**2-guruh O'rta Osiyo olimlar tomonidan aytilgan manbalar.** O'zbekistonda „Avesto“ni o'rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy,

<sup>2</sup> Bibliya. Moskva, 1997.



Abu Baxr Narshaxiy asarlarida „Avesto“ ta’limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaat mavjud. Bu nodir ilmiy asarlarning qo‘lyozma va bosma nusxalari O‘R Fanlar Akademiyasi ShI jamg‘armasida saqlanadi. Hozirgi o‘zbek olimlari A.Qayumov, H.Homidov, M.Is‘hoqov, N.Rahmonov va boshqalarning ilmiy tadqiqot va maqolalari e’tiborli. O‘zbekiston Respublikasi hukumatning qarori bilan 2001-yilda “Avesto“ning 2700-yilligi nishonlandi. „Avesto“ vatani Xorazmda bog‘ barpo qilindi, asarning o‘zbek tilidagi tarjimalari chop etildi, u haqida yangi tadqiqotlar yuzaga chiqdi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, A.O‘rta Osiyoda, xususan Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga keltirilgan geografik ma’lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Xudo yaratgan o‘lkalar sanab o‘tilar ekan, boyligi va ko‘rkamligi jihatidan qadimgi Xorazm, Gava (Sug‘d), Marg‘iyona (Marv), Baqtriya (Balx) birinchi bo‘lib tilga olinadi, Orol dengizi (Vorukasha yoxud Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) tavsiflanadi. A.dagi xalqning dastlabki vatani Sirdaryo, Amudaryo etaklari va Zarafshon vodiysi bo‘lgan. Uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri– 1-ming yillik boshiga oid bo‘lib, og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Keyingi asrlarda tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar va hokazo qo‘shilib borgan.<sup>3</sup>

**MUHOKAMA.** Makedoniyalik Iskandar istilosiga qadar Istaxr shahrida saqlangan. Iskandar Istaxrni bosib olgach, "Avesto" kitobida bayon etilgan tibbiyot, nujum ilmi hikmat sohalariga oid g'oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi. Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nusxada yetib kelgan. Mazkur nusxalarning birinchisi - duolar to'plamidan iborat bo'lib, "Vendidat-sede", ya'ni "Pok Vendidat" deb ataladi. Ushbu kitobga "Yasna" va "Vispered" lar kiritilgan. Ikkinchi kitobda

<sup>3</sup> Kulakov A.Ye. Religii mira. M., 1996.ss 150-173.



ham birinchi kitobdagi kabi "Vendidat", "Yasna" va "Vispered" lar o'rin olib, unda sharhlar ham beriladi. Izohli tarjima "Zand" (sharq ma'nosida) deb ataladi. Shuning uchun ham asarning sharhli nusxasi "Avesto va Zand" yoki "Zand Avesto" deb nomlangan. Ikkinchi variantiga binoan "Avesto" asari quyidagi qisantimetrlardan tashkil topgan: "Vendidat". Mazkur qisantimetr 22 bobdan iborat bo'lib, asosan, Axura Mazda bilan Zardushtning o'rtasida kechgan savol-javob shaklida yozilgan. U yomon ruhlarni, devlarni yengish voqealari, gunohlardan pok bo'lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi. Xarakterli jihati so'z yuritilayotgan qisantimetrda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya'ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo'lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor. Axura Mazda yurtda yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anqra Manu (Axriman) o'z yurtida yomonlikni qaror toptiradi.<sup>4</sup>

**Xulosa va takliflar.** "Avesto" asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan.

<sup>4</sup> Bahodir Eshov "O'zbekiston davlatchiligi tarixi".



**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “Avesto kitobi” “tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai”
2. Bibliya. Moskva, 1997
3. Kulakov A.Ye. Religii mira. M., 1996.ss 150-173
4. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72
5. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144
7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62
8. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29
9. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207
10. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184
11. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270



12. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03)
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749